

Qaror ijrosiga e'tibor

“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasini dotsentlari Mamataliyev Adxam Boymirzayevich, Botirov Shavkat Choriyevich hamda kafedra assistenti Yulchiyev Davronbek Gulamovich tomonidan 4-talabalar turar joyida “Qaror va ijro” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 - yil 10 - dekabrda “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-son Qarorida ko‘rsatilgan vazifalar va qarorga muvofiq amalga oshiriladigan o‘zgarishlar to‘g‘risida tushuntirish berildi.



Keyingi yillarda cheklangan suv zaxiralaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi yerlari biofondini tiklash, sho‘rlangan va eroziyaga uchragan maydonlarni qayta foydalanishga kiritish, ekotizimlar biologik xilma-xilligini saqlab qolish, “yashil energetika” va agrotexnologiyalar kabi muhim yo‘nalishlarda ta’lim, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar transferini samarali yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda. Bunday dolzarb global muammolarni yechish uchun investitsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ilmiy salohiyatni yangi bosqichga ko‘tarish hamda ishlanmalarni amaliyotda qo‘llashga qodir bo‘lgan muhandislarni tayyorlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.



Shu sababdan ushbu qarorni qabul qilinishi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti tarixida muhim bir voqea bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tadbir qiziqarli va savol-javoblarga boy tarzda o‘tdi.

Universitet matbuot xizmati